



MEDIA YORDAMIDA SHAXSIY BIZNES VA TIJORAT FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH: OCHIQ DARS TAJRIBASI

Muallif:

Pirmatova Shohida Payzullayevna

Ta'lim muassasasi:

Namangan xizmat ko'rsatish va servis texnikumi

(Informatika va axborot texnologiyalari fani katta o'qituvchisi)

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada kasb-hunar ta'limi tizimida media va axborot savodxonligini shakllantirishning amaliy ahamiyati yoritiladi. Media vositalaridan foydalanish orqali shaxsiy biznes va tijorat faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan ochiq dars tajribasi tahlil qilinadi. Ochiq darsning maqsadi, mazmuni, qo'llanilgan interaktiv metodlar hamda ularning o'quvchilarning kasbiy va tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *media savodxonlik, raqamli texnologiyalar, shaxsiy biznes, tijorat faoliyati, ochiq dars, interaktiv metodlar, kasb-hunar ta'limi.*

Zamonaviy ta'lim jarayonida media va axborot savodxonligi muhim pedagogik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar va internet makonining jadal rivojlanishi yoshlarning axborotni tahlil qilish, baholash va undan ongli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi. Ayniqsa, kasb-hunar ta'limi muassasalarida media savodxonlikni rivojlantirish o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyati, shuningdek, tadbirkorlik va tijorat imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2025-yil 18-dekabr kuni Namangan xizmat ko'rsatish va servis texnikumida Kompyuter grafikasi va dizayn operatori yo'nalishi 1/9/25-guruhida Media va axborot savodxonligi fanidan "Media yordamida shaxsiy biznes va tijorat ishlarini amalga oshirish" mavzusida ochiq dars o'tkazildi. Mazkur ochiq dars



mahorat maktabi doirasida tashkil etilib, ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirishga qaratildi.

Ochiq dars **Pirmatova Shohida Payzullayevna** tomonidan olib borildi. Darsning maqsadi talabalarda media savodxonlikni shakllantirish, ularni raqamli axborot muhitida mustaqil va tanqidiy fikrlashga o'rgatish hamda media imkoniyatlaridan foydalangan holda shaxsiy biznes va tijorat faoliyatini samarali tashkil etish bo'ldi.

Dars jarayonida media tushunchasi, uning turlari, ijtimoiy tarmoqlarning biznesdagi o'rni, raqamli reklama va vizual dizayn imkoniyatlari keng yoritildi. Talabalar media orqali mahsulot va xizmatlarni targ'ib qilish, maqsadli auditoriyani aniqlash, kontent yaratish hamda axborot xavfsizligi masalalari bilan tanishtirildi.

Ochiq dars interaktiv metodlar asosida tashkil etilib, guruhii ishlar, savol-javoblar, muhokamalar va amaliy topshiriqlar orqali olib borildi. Talabalar real hayotga yaqin vaziyatlar asosida mustaqil fikr yuritish, kreativ g'oyalar ishlab chiqish va media vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ushbu metodlar talabalarning faolligini oshirish, ijodiy yondashuvini rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Mazkur ochiq dars nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirgan holda samarali tashkil etildi. Dars talabalarning media savodxonligini oshirish, raqamli muhitda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda kelajakdagi kasbiy va tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu tajriba mahorat maktabi doirasida samarali metodik namuna sifatida tavsiya etiladi.